

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

***Davolash va professional ta'lim fakulteti***

**IV – kurs talabalari uchun**

**“UZOQ EZILISH SINDROMI, BOSQICHLARI, KLININIKASI VA  
DAVOLASH. O'TKIR ZAHARLANISHLAR. ETIOPATOGENEZI,  
KLINIKASI, TASHXISLASH, DAVOLASH PRINSIPLARI”**

**MAVZUSIDA**

**O'QUV USLUBIY QO'LLANMA**

**Toshkent–2023**

**O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI  
SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**



**“TASDIQLAYMAN”**

**prof. o‘quv ishlari bo‘yicha  
direktori SH.A. Boymuradov**

**2022 yil**

**Davolashva tibbiy-pedagogikafakulteti**

**4kurstalabalariuchun**

**“UZOQ EZILISH SINDROMI, BOSQICHLARI, KLININIKASI VA  
DAVOLASH. O‘TKIR ZAHARLANISHLAR. ETIOPATOGENEZI,  
KLINIKASI, TASHXISLASH, DAVOLASH PRINSIPLARI”**

**MAVZUSIDA O‘QUV USLUBIY QO‘LLANMA**



**Tuzuvchi:**

Raimova D.A. *Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası assistenti*

Samadova L.D. *Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası assistenti*

Bobojonova Sh.D. *Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası assistenti*

**Taqrizchi:**

Turaxodjayeva S.S. *t.f.n ., Toshkent tibbiyot akademiyasi Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muxandisligi va OMX fakulteti Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası assistenti.*

Suleymanova D.N. *t.f.d ., professor, Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy – amaliy tibbiyot markazi (RIGIATM), anemiya markazi rahbari.*

Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasining yig'ilishida ko'rib chiqildi. Tibbiy biologiya va fundamental fanlar seksiyasi bo'yicha siklopredmet yig'ilishi uslubiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etildi.

Bayonnoma № \_\_\_\_ " \_\_\_\_ " 20 \_\_\_\_ yil.

Tibbiy biologiya va fundamental fanlar seksiyasi bo'yicha siklopredmet yig'ilishi uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi, markaziy uslubiy hay'at kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etildi.

Bayonnoma № \_\_\_\_ " \_\_\_\_ " 20 \_\_\_\_ yil.

TTA markaziy uslubiy hay'at yig'ilishida muhokama qilindi va tasdiqlandi, institut kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etildi.

Bayonnoma № \_\_\_\_ " \_\_\_\_ " 20 \_\_\_\_ yil.

TTA kengashida muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Bayonnoma № \_\_\_\_ " \_\_\_\_ " 20 \_\_\_\_ yil.



**“Uzoq ezilish sindromi, bosqichlari, klinikasi va davolash.  
O'tkir zaharlanishlar. Etiopatogenezi, klinikasi,  
tashhislash, davolash prinsiplari”**

---

**Mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarga uzoq ezilish sindromi qachon kelib chiqishi haqida tushuncha berish, uzoq ezilish sindromi bosqichlari va klinikasi to'g'risida ma'lumot berish, uzoq ezilish sindromini davolash prinsiplarini o'rgatish, o'tkir zaharlanishlar etiopatogenezi haqida ma'lumot berish, o'tkir zaharlanishlar klinikasi va tashhislash usullarini o'rgatish, o'tkir zaharlanishlarni davolash prinsiplarini tushuntirish;

**Talaba bilishi kerak:**

- 1) Uzoq ezilish sindromi, bosqichlari, klinikasi va davolashni.
- 2) O'tkir zaharlanishlar, etiopatogenezi, klinikasi, tashhislashni hamda davolash prinsiplarini.
- 3) Shoshilinchsharoitlardatez yordam ko'rsatishtamoyillarini.

**Talaba bilishi shart:**

- 1) Uzoq ezilish sindromi (UES)patogenezidagi 3 ta omilni
- 2) Amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam olib borishni (o'pka auskultatsiyasi)
- 3) Uzoq ezilish sindromi klinikkechishidagi 3 ta davrlarini
- 4) Uzoq ezilish sindromi ogirlik darajalarini
- 5) Uzoq ezilish sindromini davolash usullarini
- 6) Travmatiktoksikozklinikasivadavolashni
- 7) O'tkir buyrak etishmovchiligini tekshirish usullarini.
- 8) Kardiogen shokning etiologiyasi va patogenezini.
- 9) O'pka shishini davolashni.
- 10) Kollaps, shokva hushdan ketish belgilarini qiyosiy taqqoslashni.
- 11) Psixomotor qo'zg'aluvchanliknitahlil qilishni.

**O'qitish usullari va texnikasi.** Amaliy dars, operativ so'rov, muhokama.

**O'qitish jarayonini shakllantirish.** Talabalar bilan yakka holda, guruhlarda ishlash va talabalarni mustaqil ishlari.

**Qayta bog'lanish usullari va vositalari.** Nazorat savollari, testlar, O'quv vositalari. O'quv qo'llanmalari, o'quv materiallari, ko'rgazmali qo'llanmalar, tarqatma materiallar; o'tkir yurak



etishmovchiligi bo'lgan bemorlar; amaliy malakalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish algoritmi; stendlar, ko'rgazma vositalari; slaydlar, vaziyatli masalalar, testlar. berilgan topshiriqlarni bajarish, amaliy ko'nikmalarni bajarish.

### **Motivasiya.**

Uzoq ezilish sindromini - 1885-yilda N. I. Pirogov "Joyli travmatik sovuq qotish", "to'qimalarning travmatik tarangligi", "mahalliy asfiksiya"ni bayon qilgan edi. Ko'pincha oyoq yumshoq to'qimasining biror katta qismi uzoq vaqt ezilibqisilib qolganda to'qima va organizmda o'zgarishlar yuz beradi.

### **Fanlararo bog'liqlik.**

Normal anatomiya, gistologiya, fiziologiya, patologik anatomiya, patologik fiziologiya, biokimyo, biologiya, ichki kasalliklarpropedevtikasi, fakultet terapiyasi, farmakologiya, laboratoriyafanlari, immunologiya, kasbiy patologiya fanlari o'zarobog'langan. Favqulodda vaziyatlar yurak-qon tomir kasalliklarida, revmatik kasalliklarda, onkologik kasalliklarda, homiladorayollarda, gematologik kasalliklarda, nefrologik kasalliklarda, endokrinologik patologiyalarda va ko'plab surunkalipatologiyalarda yuzaga keladi. Favqulodda vaziyatni to'g'ritashxislash uchun yuqoridagi fanlar bo'yicha olingan bilimlarmuhimdir.

### **Nazariy qism:**

**KRASH SINDROMI** - 1885-yilda N. I. Pirogov "Joyli travmatik sovuq qotish", "to'qimalarning travmatik tarangligi", "mahalliy asfiksiya" ni bayon qilgan edi. Ko'pincha oyoq yumshoq to'qimasining biror katta qismi uzoq vaqt qisilib qolganda to'qima va organizmda o'zgarishlar yuz beradi.

Birinchi marta uning klinikasi Italiyada yer qimirlashida ro'y bergan fojiaga asoslangan. Travmatik toksikoz o'pirilish, yer qimirlash, bombardimon qilish, temir yo'l halokatlari va boshqalar vaqtida kuzatiladi.

**UZOQ EZILISH SINDROMI** - ko'p uchraydigan sindrom bo'lib, tabiiy ofatlar va urushlar oqibatida kelib chiqadi. Ikkinchi jahon urushida Angliya shaharlari portlatilganda jabrlanganlarining 3,5%